

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr .....	8
<b>Baxtiyor Islamov</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati .....	10
<b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov</b>	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
<b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar .....	24
<b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari .....	30
<b>Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	35
<b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir .....	39
<b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish .....	44
<b>A. X. Salamov</b>	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida .....	48
<b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	55
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarova</b>	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....	63
<b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
<b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
<b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari .....	76
<b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari .....	80
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari .....	84
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) .....	89
<b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
<b>Nazarova Umida Avazovna</b>	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari .....	98
<b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish .....	103
<b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati .....	108
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili .....	113
<b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish .....	119
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari .....	123
<b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	
Razvitiye cifrovoy transformatcii bankovskogo sektora Respublikи Uzbekistan .....	129
<b>Abdurahmanova Matluba Mahamadaminovna</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умидा Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiiev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dusmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) .....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabeck Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshihevich</b>	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
<b>Abdullahayev Boburjon Akbaralievich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи" .....	332
<b>H. З. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoiria Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari .....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot" .....	373
<b>Хусанов Каҳрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi .....	381
<b>Bobayev Isroijon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Ilhomovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova</b>	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldasheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi .....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri .....	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	



# KO'CHMAS MULK BOZORINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich

Iqtisodiyot fanlari nomzodi,  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti



**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda ko'chmas mulk bozorini baholashning institutSIONAL asoslari aks ettirilgan. Jumladan, raqamli iqtisodiyot sharoitida ko'chmas mulk bozorini baholash faoliyatida IT texnologiyalari va sun'iy intellektidan foydalanish, baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi, baholash faoliyatining subyektlari va tartibga solishning asosiy instrumentlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'chmas mulk, baholash, ko'chmas mulk bozorini baholash, raqamli iqtisodiyot, mexanizm, tartibga solish mexanizmi, tartibga solish instrumentlari, baholash faoliyatining subyektlari.

**Abstract:** The article reflects the institutional basis of real estate market evaluation in Uzbekistan. In particular, the use of IT technologies and artificial intelligence in the evaluation of the real estate market in the conditions of the digital economy, the mechanism of regulation of evaluation activities, the subjects of evaluation activities and the main instruments of regulation were considered.

**Key words:** real estate, evaluation, real estate market evaluation, digital economy, mechanism, regulatory mechanism, regulatory instruments, subjects of evaluation activity.

**Аннотация:** В статье отражены институциональные основы оценки рынка недвижимости в Узбекистане. В частности, были рассмотрены вопросы использования ИТ-технологий и искусственного интеллекта при оценке рынка недвижимости в условиях цифровой экономики, механизм регулирования оценочной деятельности, субъекты оценочной деятельности и основные инструменты регулирования.

**Ключевые слова:** недвижимость, оценка, оценка рынка недвижимости, цифровая экономика, механизм, механизм регулирования, инструменты регулирования, субъекты оценочной деятельности.

## KIRISH

Jahonda ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish, ko'chmas mulkni baholash amaliyotini bozor iqtisodiyoti shartlariga ko'ra takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ko'chmas mulk bozorini baholash faoliyatida IT texnologiyalari va sun'iy intellektidan foydalanish, ko'chmas mulkni baholash jarayonida shaffoflikni ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin ko'chmas mulkni qiyosiy yondashuv asosida baholashda solishtiriladigan elementlar bo'yicha yagona ma'lumotlarni to'plash zarurligi, investitsiya maqsadlari uchun ko'chmas mulkni baholashda pul oqimlarini diskontlash uchun kapitallashtirish stavkasini hisoblash, baholash yondashuvlari bo'yicha vazni koeffitsiyentlari bo'yicha ustuvorlik berishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish ilmiy tadqiqotlarda yetarlicha tadqiq etilmagan.

O'zbekistonda ko'chmas mulkni baholash orgali mulkning haqiqiy bozor qiymatini aniqlash, ko'chmas mulkka bo'lgan qonuniy huquq-manfaatlarni himoya qilish maqsadida ko'chmas mulkning bozor qiymatini baholash, ko'chmas mulkni baholash xizmatlari bozorida professional ishtirokchilar ishtirotkini kengaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Respublikada "xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash borasidagi institutSIONAL va ma'muriy islohotlarni davom ettirish hamda bu borada qonun ustuvorligini ta'minlash" [1] vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda ko'chmas mulkning haqiqiyadolatli qiymatini aniqlash, ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha tuzilmagan bitimlar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, xorijiy tajribalar asosida ko'chmas mulkning kadastr qiymatini aniqlash asosida mulkni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish, baholashning xalqaro standartlarini mulkni baholash yagona milliy standartlariga moslashtirish kabilar ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Baholash faoliyatini ilmiy-nazariy jihatlarini tadtqiqot etish, shu jumladan, ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslarini yanada takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, amaliyotchi mutaxassislar tomonidan tadtqiq etilgan.

Xususan, Amerikalik iqtisodchilar J.Fridman hamda N.Ordvey tomonidan yozilgan "Daromad keltiruvchi ko'chmas mulkni tahlil qilish va baholash" nomli qo'llanmasida mualliflar ko'chmas mulk bozorini ko'chmas mulkni yaratish, uzatish, faoliyat yuritish va moliyalashtirishni ta'minlaydigan bozor mexanizmlarining o'zaro bog'langan tizimi sifatida tushuntiradi [2].

MDH iqtisodchi olimlaridan hisoblangan S.N.Goveyko: "Ko'chmas mulk bozorini baholash faoliyatiga raqamli iqtisodiyot elementlarini joriy etish, shu jumladan, baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash, ularga kirish, yangilash uchun zamonaviy IT-teknologiyalar (bulutli texnologiyalar, blokcheyn texnologiyalari, ma'lumotlarni qazib olish) va baholash obyektlarining xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazalari, BigData, sun'iy intellekt texnologiyalardan foydalanish zarur[3] ekanligini ta'kidlagan.

Rossiyalik iqtisodchi L.V.Slezko o'zining ilmiy-tadtqiqot ishlarida "Rossiya Federatsiyasida ko'chmas mulk bozorini baholashga oid bo'lgan baholash yondashuvlari korporatsiyaning ko'chmas mulkini biznes qiymatini oshirish nuqtayi nazaridan baholashda daromadli yondashuv (pul oqimlarini diskontlash) usuli eng mos kelishini ta'kidlagan" [4].

Mamlakatlarda ko'chmas mulk bozorining rivojlanish darajasini va uning o'zgarish dinamikasini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, bu masalada ushbu masalani ma'muriy tartibga solish, xususan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralar muhim rol o'ynaydi. Demak, har bir mamlakatda ko'chmas mulk bozorini, shu jumladan, uy-joy sektorini rivojlantirishda u yoki bu darajada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kutimoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning faoliyk darajasi mamlakatlarga qarab har xil bo'lib, bu keyinchalik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda uy-joy tizimini shakllantirishda farqlarning mavjudligini keltirib chiqaradi [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Nabixodjayev o'z tadqiqotlarida ko'chmas mulkni daromadli yondashuv asosida baholashda qo'llanilayotgan kapitalallashtirish stavkasini hisoblash uchun inflyatsiya indeksidan foydalanishni taklif etadi. Bunda inflyatsiya indeksi hisoblash uchun tanlangan valyutaga muvofiq bo'lishi lozimligini qayd etadi.

Bazaviy inflyatsiya – bu inflyatsiyaning bir qismi bo'lgan va o'zida ma'muriy hamda mavsumiy omillarning narxlardagi ta'sirini hisobga olmagan holda tovar va xizmatlar narxlarining erkin o'zgarishini (dinamikasini) aks ettiruvchi ko'rsatkich ekanligini ko'rsatib o'tadi [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash usuli, ekspert baholash, iqtisodiy kuzatish, monografik tadqiqotlar, sotsiologik kuzatishlar va ularning natijalarini tahlil qilish, dinamik tahlil va chiziqli bog'lanishlar usullaridan foydalanilgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Bozor iqtisodiyoti mulkchilikning turli shakllariga asoslanishi bilan ko'chmas mulk bozori bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, ko'chmas mulk bozori dunyo mamlakatlari yalpi boyligining asosiy qismini tashkil etadi. Iqtisodiyotning yirik tarmog'i sifatida ko'chmas mulk bozorining ahamiyati shundan iboratki, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, sanoat tarmoqlari faoliyatini yuritish, aholini uy-joylar bilan ta'minlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning zamirida ko'chmas mulk bozori va u bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yotadi.

Shu bois ko'chmas mulk bozorining ilmiy-nazariy asoslarini tadtqiq etish orqali mulk bozorining rivojlanishi haqida tegishli gipotezalarni shakllantirish, nazariy asoslari orqali ko'chmas mulk bozori faoliyatiga oid baholash va investitsion qarorlar qabul qilishni tahlil etish zaruriyatini yuzaga keladi.

Bugungi kunda baholash faoliyatini tartibga solish, ushbu faoliyatni davlat tomonidan muvofiqlashtirish, uning uslubiy ta'minotini, novmativ-huquqiy bazasini takomillashtirib borish, baholash faoliyati ishtiroychilar, xususan, professional ishtiroychilar faoliyatini litsenziyalash, baholovchilarga malaka serfitikatlarini berish, umuman olganda mazkur faoliyatni baholash xizmatlari bozori bilan yaxlit holda tartibga solish murakkab bir mexanizmni tashkil etadi, albatta. Ushbu faoliyat xizmatlari bozori segmentining muhim bir tarmog'i hisoblangan, baholash xizmatlari bozorida doimiy harakatda bo'lishini inobatga olsak, baholash faoliyatini tartibga solish ham muhim o'rinn egallaydi.

Baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi tuzilmasining instrumental, institutsional va funksional tarkiblarini ko'rib o'tishdan oldin "mexanizm" tushunchasiga aniqlik kiritib olish, uni nazariy jihatdan ko'rib chiqish muammosi mavjud.



Shuningdek, ko'chmas mulk bozorini baholashning ilmiy-nazariyi va tashkiliy asoslarini tadqiq etish jarayonida hamda ko'chmas mulkni baholash faoliyati va uni tartibga solish mexanizmini tadqiq etish orqali uning institutsional asoslari va funksional tarkiblarini tavsiflashda bir qator muammoli masalalar amalda mavjud.

Mazkur ilmiy tadqiqotning asosiy xususiyati shundan iboratki, ko'chmas mulk bozorining ilmiy-nazariyi asoslarini tadqiq etish orqali mulk bozorining rivojlanishi haqida tegishli gipotezalarni shakllantirish, nazariy asoslar orqali ko'chmas mulk bozori faoliyatiga oid baholash va investitsion qarorlar qabul qilinishini tahlil etishdan iboratdir.

N.V.Gorodnova va N.Mavrina tomonidan ko'chmas mulk bozorini boshqarishning iqtisodiy jihatlari borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarda quyidagicha ta'kidlanadi: "Ko'chmas mulk bozori tarixidan ma'lumki, turar-joylar bilan bog'liq munosabatlarni o'zid aks ettirgan ko'chmas mulk bozoriga oid huquqiy yondashuvlar bozorga ta'rif beriladigan iqtisodiy yondashuvlardan oldin mavjud bo'lgan. Ya'ni "ko'chmas mulk" kategoriyasi qadimgi Rim imperiyasi davridayoq huquqiy talqin etilib, ushbu davlatda mulklar yirik ikkita toifaga, jumladan, ko'char va ko'chmas mulklarga ajratishgan. Bu borada, roman-german huquq oilasi ilmiy tadqiqot ishlarida rim huquqi – davlatdagi mavjud yer uchastkalari (maydonlari), yer osti tabiiy boyliklari, mulkdorga taalluqli bo'lgan yerlar hisobidan boshqalarning mehnati orqali yaratilgan barcha narsalar "ko'chmas mulk" sifatida baholangan. Bu borada yer uchastkasi asosiy ko'chmaslik xususiyatiga ega hisoblangan. Ular tomonidan quruqlikda mavjud bo'lgan barcha narsalar yer yuzasining tabiiy yoxud sun'iy qismi, ya'ni "res soli" deya atalgan. Ahamiyatlisi, ularning fikricha, yer bilan bog'liq bo'lgan, uning yuza qismiga mustahkamlangan (tabiiy yoki sun'iy) narsalar yerning ajralmas tarkibiy qismi, ekanligi e'tirof etilgan".<sup>[7]</sup>

"Mexanizm" tushunchasi iqtisodiyot sohasiga keng miqyosda tatbiq etilmoqda va "moliyaviy mexanizm", "boshqaruv mexanizmi", "ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot mexanizmi" kabi tushunchalarga bo'lib ifodalanmoqda. "Mexanizm" tushunchasi ayrim paytlarda tizimdagи holatning majmuasini (masalan, "moliyaviy mexanizm" – moliyaviy tizim holatining umumiy ko'rinishini), boshqa paytda esa, taraqqiyotning asosiy harakat manbasi, tizimning asosiy elementi, uning boshqa elementlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlarini anglatadi.<sup>[8]</sup>


Ushbu tushuncha yuqorida ta'kidlaganidek, iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo'lgan baholash xizmatlari bozorida hosil bo'lishi bevosita, uning "iqtisodiy mexanizm" tushunchasini bilan bog'liqlikda talqin etilishini taqozo etadi. Yuqoridagilardan ko'rinish turibди, iqtisodiy mexanizm tushunchasi "iqtisodiy tizim"lar bilan bevosita bog'liq.

Iqtisodiy tizim – ma'lum bir davr va makonda jamiyatdagi turli xo'jalik yurituvchi subeektlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni bir butun holda, muayyan tarzda tarkib topishi va tartibga solinishini ifodaydi. Shuningdek, u "ishlab chiqarish, daromad va uni taqsimlashga doir qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish mexanizmlari va instituti (tartiblari) majmuyidir".<sup>[9]</sup> Keyingi paytlarda, "iqtisodiy mexanizm" xo'jalik yurituvchi subeektlar faoliyatining bozor iqtisodiyoti talabi asosidagi boshqaruvning, hukumat vazifalariga mos ravishda tartibga keltirilish holati ko'rinishida ham tasavvur qilinmoqda.<sup>[10]</sup>

Avvalombor shuni ta'kidlash joizki, baholovchi baholash yondashuvlari va usullarini asosli ravishda tanlash va qo'llash baholovchining malakasidan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil tanlaydi va bu jarayonga mulk huquq egasi, buyurtmachi va uchinchi shaxslar aralashishi mumkin emas. Mustaqil baholovchi baholash yondashuvlari va usullarini asosli ravishda tanlash va qo'llash uchun zarur va yetarli bo'lgan hajmda baholash obyekti haqida axborot va bozorga oid axborotni yig'ish va tahlil qilishi kerak.<sup>[11]</sup>

Ayni vaqtda baholovchi tashkilotlarning amaliy faoliyati o'sib borayotgan zamonaviy talablarni qoniqtirma-yapti. Baholash ishlari bir qator hollarda yuzaki va past professional darajada o'tkazilmoqda.

"Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq va mustaqil baholash tizimini yanada rivojlantirish, baholash xizmatlarining malakasi hamda sifatini oshirish, baholovchi tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning samarali usullarini tatbiq etishni taqozo etmoqda.




1-rasm: O'zbekistonda baholash tashkilotlarini tashkil etishdagi ustav kapitalini shakllantirishga oid talablar<sup>1</sup>

1 Muallif ishlansmasi. Manba: <https://lex.uz/docs/1347811>




Yuqorida rasm ma'lumotlarida mamlakatda baholash tashkilotlarini tashkil etishda ularning ustav kapitalini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan talablar aks ettirilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilganlar asosida ta'kidlash o'rinniki, baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi – bu baholash xizmatlari bozorida ushbu faoliyatni davlat yoki o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan nazorat qilish usullari, shakllari va asosiy vositalari hisoblanib, unda mazkur faoliyat ishtirokchilari (davlat, baholash kompaniyalari, baholovchilar, baholash tashkilotlarining professional birlashmalari va h.k) mazkur faoliyat davo-mida o'zaro munosabatlarni ifoda etuvchi va muvofiqlashtirib turuvchi tizimlar majmuasidir (2-rasm).



2-rasm: Baholash faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan mexanizmlar<sup>2</sup>

Baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmining obyekti – baholash faoliyi ishtirokchilari (suybektlari) o'rtasida vujudga keluvchi munosabatlardir. Shu sababli, ushbu faoliyat ishtirokchilari bo'lgan baholash faoliyati subyektlari faoliyatini ko'rib o'tish maqsadga muvofiq (3-rasm).



3-rasm: Baholash faoliyatining subyektlari<sup>[12]</sup>

Ko'chmas mulk obyektlarining mohiyatini aniqlovchi ko'rsatkichlar umumiylari va ma'lum obyektga tegishli bo'lgan turlarga bo'linadi. Masalan, yer qishloq joylarda insonlarning yashashlarini va millatning ijtimoiy-hududiy rivojlanishini ta'minlovchi manfaat bo'lib xizmat qiladi. Daromad manbayi bo'lgan yer – qishloq xo'jalik ishlab

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.



chiqarishining asosi, mustaqil murakkab (qurilgan binolar, inshootlar va h.k.lar bilan iqtisodiy aloqada) investitsiyalash obyekti, milliy boylikning bir qismi, soliqqa tortish obyekti, tabiat boyliklari manbayi (ko'chmas mult obyektlari orasida yagona) hisoblanadi.<sup>[13]</sup>

Yuqorida ko'rib chiqilgan baholash faoliyatini tartibga solish va ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish borasidagi ishlarni davlat tomonidan amalga oshirilishida bir qancha instrumentlardan keng foydalaniladi. Baholash faoliyatini tartibga soluvchi asosiy instrumentlarni quyidagi rasmdagi chizmaga ko'ra tasvirlash mumkin (4-rasm).



**4-rasm:** Baholash faoliyatini tartibga solishning asosiy instrumentlari<sup>3</sup>

Keltirilgan chizmada baholash faoliyatini tartibga solish davomida davlat tomonidan foydalilaniladigan asosiy unsurlar ifodalangan. Mazkur instrumentlar orqali, masalan faoliyatni litsenziyalash bilan birgalikda davlat baholovchi tashkilotlarning faoliyatini nazorat ham qiladi. Sababi, ular tomonidan qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'yilgan taqdirda, mazkur instrument orqali baholash tashkilotlari faoliyatini to'xtatiladi yoxud tugatiladi.

Mazkur instrumentlardan foydalangan holda baholash faoliyatini mamlakatimizda davlat tomonidan tartiblashtirish bo'yicha bir qancha davlat organlari, tashkilotlarining tegishli vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari va 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida belgilab berilgan (1-jadval).

**1-jadval:** Baholash faoliyatini tartiblashtirish bo'yicha davlat organlari, tashkilotlarining tegishli vakolatlari taqsimoti<sup>4</sup>

Davlat organlari, tashkilotlarining nomi	Baholash faoliyatini tartiblashtirish bo'yicha vakolatlari
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazi	Baholash tashkilotini akkreditatsiya qilish tartib-taomillarini joriy qilish
Korporativ boshqaruв ilmiy-ta'lim markazi	Baholovchining malaka sertifikatini berish
O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	Baholash faoliyatida davlat tomonidan tartibga solish va mulkni baholash standartlarini tasdiqlash bo'yicha huquqiy vorislik qilish


3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Baholash faoliyatini tartibga solishning institutsional tuzilmasi yuqorida ko'rib o'tilganidek, baholash faoliyatini tartibga solishda bevosita ishtirok etuvchi davlat organlari, tashkilotlari va o'zini-o'zi boshqarish mexanizmidaagi baholovchi tashkilotlar uyushmalari, baholovchilar jamiyatlarining baholash obyektiiga nisbatan faoliyat ko'rsatishi quyidagi sxemada ko'rsatilgan bo'lib, uning mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga asoslangan zamonaviy mulk to'g'risidagi multifan qoidalariga muvofiq o'rganish va talqin qilish mumkin.


Aytish joizki, sxemada baholashning jahon amaliyotidagi turli mulkni baholash faoliyati va uni tartibga solishning barcha mavjud modellari mujassamlashgan.



5-rasm: Baholash faoliyatini tartibga solishning funksional – tuzilmaviy sxemasi [14]

Ushbu sxemada: VT – holis baholovchi tashkilot (firma); O – baholash obyekti va uning egasi; D – turli mulkni baholash faoliyatini tartibga solish (muvoqilaqtirish va nazorat qilish)ga vakolatli bo'lgan davlat regulativ organlari; N – baholovchilarning o'zini o'zi tartibga soluvchi (muvoqilaqtiruvchi) nodavlat notijorat tashkilotlari.

Baholash faoliyatini davlat tomonidan muvoqilaqtirish ishlari ikki shaklda olib boriladi (6-rasm).




6-rasm: Baholash faoliyatini davlat tomonidan muvoqilaqtirishning asosiy shakllari

Baholash faoliyatini davlat tomonidan muvoqilaqtirishning asosiy shakllaridan biri hisoblangan, baholash standartlari o'zaro bog'liq norma va qoidalari majmuyidan iborat bo'lib, ular o'zida baholash tushunchalari va prinsiplarini, baholash faoliyatida qo'llaniladigan atamalar va ta'riflarni, qiymat turlariga qo'yiladigan talablarni, boshlang'ich axborotga qo'yiladigan talablarni, baholash o'tkazish tartibini, baholash usullarining qo'llanish xususiyatlari, baholash natijalarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarni va boshqa talablarni aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq baholash faoliyati litsenziya asosida amalga oshiriladi. Baholash faoliyatini litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Baholash faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiruvchi organ baholovchi tashkilotning qonun hujjalarda belgilangan litsenziya talablariga va shartlariga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-iyundagi "Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish, baholovchilarning professionallik darajasi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, mazkur sohada bajariладиган ишларнинг холислиги ва сифатиустидан нazoratni kuchaytirish maqsadida baholash faoliyatini litsenziyalash va baholash tashkilotlari ustav kapitali (ustav jamg'armasi)ning eng kam miqdoriga bo'lgan talabni bekor qilindi. Qolaversa, baholovchi tashkilotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazida akkreditatsiya qilish tartib-taomillarini joriy qilish belgilab olindi.

Baholash faoliyatini davlat tomonidan muvoqilaqtirish bir nechta yo'nalishlarda olib boriladi (7-rasm).



**7-rasm:** Baholash faoliyatini tartibga solishning asosiy yo'nalishlari<sup>5</sup>

Mazkur yo'nalishlar mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori mexanizmidan kelib chiqqan holda baholash faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, pirovardida mulk qiymatining adolatli baholash jarayonining shakllanishini nazarda tutadi.

Baholash faoliyatini tartibga solishdagi umumiy mexanizmlar ko'rib o'tilganda, faoliyatni o'zini-o'zi tartibga solish va muvofiqlashtirish borasidagi mexanizm ifodalangan edi. Baholash faoliyatini tartibga solishning funksional – tuzilmaviy sxemasiga asosan, o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmi baholash faoliyatini tartiblashtirishdagi muhim institutsional tuzilma hisoblanadi. Quyida, aynan, baholash faoliyatini o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmiga doir rasm keltirilgan (8-rasm).

Ushbu mexanizmdagi faoliyat baholovchi tashkilotlarning professional birlashmalari, baholovchilarning jamiyatatlari va assotsiatsiyalari orqali amalga oshiriladi.



**8-rasm:** Baholash faoliyatida o'zini-o'zi tartibga solishning asosiy shakllari

Boshqa sohalar singari, baholash faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lган institutsional asoslar mam-lakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga chambarchas bog'liqdir. Sababi, institutsional tartibni tashkil etuvchi davlat organlari, tashkilotlari hamda jamoat birlashmalarining faoliyatini rivojlantirish aynan davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi.

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.



## XULOSA

Yuqorida shakllantirilgan fikr va mulohazalar asosida baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmi tuzilmasining instrumental (instrumentlari), institutsional va funksional tarkiblari mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori faoliyatini rivojlantirishga qaratilgandir va ular o'zaro bog'liq ravishda tavsiflanadi. Bundan tashqari baholash faoliyatining institutsional tuzilmasi mavjud bo'lib, uning mazmunini ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga asoslangan zamonaviy mulk to'g'risidagi multifan qoidalariga to'g'ri keladi.

Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari va ularning tahlili bo'yicha quyidagi ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar shakllantirildi:

*birinchidan*, ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslarini o'rganishda "mexanizm", "iqtisodiy mexanizm" va "iqtisodiy tizim" kabi tushunchalar va ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslandi;

*ikkinchidan*, ko'chmas mulk bozorining tuzilishini tavsiflashda uchta asosiy yondashuvdan ya'ni, institutsional yondashuv, obyekt turi bo'yicha yondashuv va reproduktiv yondashuvdan foydalanish tavsiya etildi;

*uchinchidan*, baholash faoliyatini tartibga solish va ushu faoliyatni muvofiqlashtirish borasidagi ishlarni davlat tomonidan amalga oshirilishi foydalilaniladigan asosiy instrumentlar va mexanizmlar tavsiya etildi;

*to'rtinchidan*, baholash faoliyatini tartibga solishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi va mazkur yo'nalishlar mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori mexanizmidan kelib chiqqan holda baholash faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, pirovardida mulk qiymatiningadolatli baholash jarayonining shakllanishini nazarda tutishi asoslab berildi;

*beshinchidan*, baholash faoliyatini tartibga solishning funksional – tuzilmaviy sxemasiga asosan o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmi baholash faoliyatini tartiblashtirishdagi muhim institutsional tuzilma ekanligi ilmiy asoslandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi 2022-yil 8-maydagi PF-101-sonli Farmoni. [lex.uz>docs/-5947775](http://lex.uz/docs/-5947775)
2. Фридман, Дж. Анализ и оценка приносящей доход недвижимости. –М; 1995. –189 с.
3. Говейко С.Н. Технология блокчейн: новые возможности // Достижения науки и образования, 2018. –№15(37). –С. 17.
4. Слезко Леонид Вячеславович. Оценка недвижимого имущества в системе корпоративного управления собственностью. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва–2020.
5. Tsertseil J.S., Kookueva V.V. Problems of property market development in Russia in the modern context // Espacios. 2017. –Т.: 38. –№ 47. –р. 41.
6. Набиходжаев А. Инфляция: ташқи омиллар таҳлили. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
7. Городнова Н.В., Маврина И.Н. Экономические аспекты управления рынком недвижимости: учебное пособие; Мин-во науки и высш. обр. РФ.– Екатеринбург : Изд-во Урал. 2020.– 104 с.
8. Navruzov N.E., "Turistik xizmatlarning holati va uni rivojlantirish muammolari (Samarkand viloyati misolida)" Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2014 y.
9. Jo'rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. (Qayta nashr). 1-qism. –Т.: "Fan va texnologiya", –2014, –44-bet.
10. Полянский А., Соловьев М. Систематизация механизмов государственного регулирования на рынках недвижимости //Недвижимость и инвестиции. Правовое регулирование. –№4(9), 2012.
11. O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
12. D.R.Abdikarimova, G.M.Bekimbetova. Ko'chmas mulkni baholash. O'quv qo'llanma. –Toshkent. –2017 yil. –13-bet.
13. <https://fayllar.org/1-mavzu-kchmas-mulk-obektlari-va-ulardan-fojdalanishni-tashkil.html>
14. Sh.Sh.Shoxa'zamiy —Mulk qiymat va narxning nazariy asoslari. Tanlangan ma'ruzalar/O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsusus ta'lim vazirligi.—Т.: Iqtisod-moliya, –2015 yil.–460 bet.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

